



## HIKOYA JANRIDA MUSHRATAK MAVZULAR BADIY TALQINI

Axmedova Sarvinoz Alimardon qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti

O'zbek filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7972633>

### ARTICLE INFO

Received: 18<sup>th</sup> May 2023

Accepted: 25<sup>th</sup> May 2023

Online: 26<sup>th</sup> May 2023

### KEY WORDS

Sujet chizig'i, Abdulla Qahhor ijod maktabi, voqealar rivoji, obraz va obrazlilik.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolani yozishdan maqsad O'zbek adabiyotida hikoya janrida uchrovchi mushtarak mavzularning badiiy talqini jihatdan ifodalanishi yuzasidan fikr va mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, maqolada voqealar rivojining sujet chizig'i bilan aloqadorlikda amalga oshirilishi yuzasidan ilgari surilgan g'oyalarning badiiy adabiyotimiz tarkibidagi hikoyalar bilan izohlaniladi. Maqolada Abdulla Qahhor ijodining hikoyanavislik maktabida tutgan o'rni va roli, qolaversa, bugungi kunda qalam tebratib kelayotgan hikoyanavislar ijodida hikoyalarning nomlanishi yuzasidan ham qarashlar mavjud.*

Bugungi kunda hikoyachilik janri va unga qo'yiladigan talablarning umummilliy detallar asosida tashkil etilishi katta bir voqea sanaladi bunda, asosan, muallifdan hikoya janrini yozishda katta kichik voqealar rivoji yoki bo'lmasa qahramonlar sonining obrazlilik tarzida cheklangan sonlarda ifodalanishi ham o'ziga xoslikni keltirib chiqarishi bilan birgalikda, kitobxonda hikoyada bo'lgan voqealar rivoji syuyjet chizig'i va yechimning ifodalanishiga munosabatni bildiradi. Bunda, asosan, adabiyot darslarda keltirilgan hikoyalarning tarbiyaviy ahamiyatlariga muvofiq tarzda ularga qo'yiladigan nomlar va ularning ramziyligi ifodalanishi katta bir adabiy janrni ifodalanishini ochib beradi. Bunda hikoyalarda qahramonlarning jamiyat va xalq hayotida tutgan o'rni ijtimoiy masalalar yoki bo'lmasa zulm kabi masalalarda qoralanishi va xalq hayotidagi voqealarning poetik ifodasi ya'ni nasriy asarlarning bir shaxobchasi sanaladigan keltiriladi. Hikoya janrida turli xil mavzularning badiiy talqinini ochib berishda yani milliy mentalitet yani milliy koloritga asoslangan, suyangan holda badiiy talqin qilish ham bir voqelikning kichik nishonasi deyish mumkin. Jumladan, hikoya janrida keltirilgan asarlar va ularga qo'yilgan nomlar kishilik jamiyatimizda yoki adabiy jarayoni vakillari orasida taxrir etiladi. Bunda bizning mashhur hikoyanavislarimiz Abdulla Qahhor, Nazar Eshonqul, Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida o'zbekona ruh va milliy koloritni sezish mumkin. Bunda xalqning hayoti tasviriy ifodalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Jamiyat va xalq o'rtasidagi o'zaro muomolarning, muomoli vaziyatlarning yechimi yuzasidan bildirilayotgan elementlar yoki subyektiv munosabatlarni keltirish mumkin. Hikoyalar yaratilishiga muvofiq badiiy talqin qilinar ekan, ularda mushtarak mavzular ya'ni bir-biriga



aloqador mavzular bunda jamiyat hayotida yuz berayotgan siyosiy yoki ijtimoiy voqeaga munosabat tarzida yozilgan asarlarning bir bo'lagi bo'lib, hikoyalar ham turli xil yo'nalishlarni qamrab oladi hamda bir xil mavzular ko'lamida ham yaratilgan hikoyalarni kuzatish mumkin. Abdulla Qahhorning hikoyachilik borasidagi tutgan o'rni va hikoyalarning teran tahlil etilishi asosan sizning va bizning hikoyanavislik mahoratiga bo'lgan munosabatlarimiz. Abdulla Qahhor ijodi haqida so'z ketganda kam so'z qo'llab ko'p ma'no chiqara olish qobiliyatiga ega ijodkorlardan biridir deyish mumkin. Haqiqatdan ham hikoya janrida mavzular ko'laminig keltirilishiga ko'ra o'quvchi va kitobxonni qamrov darajasini ham inobatga olib o'tish lozim. Aksariyat yosh bolalar uchun yoki tarjima asarlar, jahon adabiyoti vakillariga munosabati va yoki mumtoz adabiyot vakillari uchun yaratilgan hikoyalar o'zining qamrovi bilan kitobxonlarni atrofiga jamlay oladi. Hikoya janrda shunday qonuniyat va muhokamalar ham mavjud bo'lib hikoya yaratish va uni janrlarga solish, hamisha takrorlash hamda taqqoslashning o'zi katta bir voqeadir. Adabiyot darslarida hikoyaning tarbiyaviy ahamiyatiga yuzlanib ularning nomlanishi ham tarbiyaviy bo'lishi lozim ekanligiga shubxa qilmagan holda, hikoya janrining mavzular ko'lami asosan sevgi-muhabbat, vatanparvarlik, urush yoki do'stlik, qo'ni-qo'shnilik kabi munosabatlar asosida qurilishi ham buning yaqqol misoli ekanligi bilan dalolatlanadi.

"O'zbek adabiyotida hikoya janri o'z tarixi va taraqqiyotiga ega. Keyingi yillarda bu janrning rivojiga sezilarli hissa qo'shib kelayotgan adiblardan biri Xurshid Do'stmuhammaddir.

Uning hikoyalarida inson qalbidagi iztiroblar, ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar kabi muammolar o'zining badiiy talqinini topgan. Bu davr adabiyotida Nazar Eshonqul, Xurshid Do'stmuhammad, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton, N. Norqobilov, S. O'nar, A. Yo'ldoshev kabi bir qator ijodkorlarning turli xarakterdagi hikoyalarini kuzatishimiz mumkin. Biz bu o'rinda ramziylik, majoziylik kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan hikoyalarga to'xtalib o'tamiz".[1] Hikoyalarda qahramon masalasining ifodalanishi ham o'sha davr jamiyatda yashab turgan mashhur kishilar va xalq hayotiga manfaat keltirgan kishilar bilan izohlanishi, hikoyalarning o'qishlilik darajasini badiiy darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bunda asosan hikoyalar tarkibida kelgan voqealar rivojining qay tarzda amalga oshirilishi obrazlar yoki qahramonlarning hikoyaning qaysi bir qismida ifodalanishiga ko'ra ham ajratiladi.

Shuni aytib o'tish joizki, o'zbek adabiyotida hikoya janri boshqa janrlardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bunda hikoyanavislik mahorati, hikoyanavislik maktablarining qamrovi katta bo'ldi. Qandaydir ma'noda bugungi kunda Abdulla Qahhor maktabining o'quvchilari ustoz-shogird bo'lib, hikoyanavislikda qalam tebratib kelishmoqda. Abdulla qahhorning hikoyalarni mavzular bilan boyitish ularning tag zamirida yashiringan ma'no maqsadlarni ochib berishda kam so'z qo'llab ko'p ma'no qo'llay olishi hikoyanavislik mahoratidan dalolat beradi. Umumiy qilib olganda, Abdulla Qahhor hikoyanavislikda xalq bilan birga ishlashni, samimiylikni, sodda yo'nalishni tanlangan. Hikoyalarni o'rganish prinsiplari ham Abdulla Qahhor ijodida nisbatan oson va yengilligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasini olaylik. Yozuvchining ushbu hikoyasi xalqchil va kishilik jamiyatimizda yuz berib turgan oddiy bir voqea-hodisalardan biri ekanligi bilan izohlanadi. Biroq, mana shunday voqea-hodisalarning jamiyatimiz hayotiga munosabati kishilarning o'zaro muloqoti, muammoning yechilishi va yechilish yo'lidagi sa'y-harakatlar Abdulla Qahhorning ijodiy



mahorati qirralarini ochib beriladi. Hikoyaga “O’g’ri” deb nom berilishidan maqsad, jamiyatdagi haqiqiy o’g’rilarning yuzi fosh etiladi. “Har bir xalq va millat o’zining yashash sharoiti, ijtimoiy holati, tarixi va buguni, erishgan yutuqlari hamda yo’qotganlarini ma’lum bir qolipga solib, ulardan tajriba o’rgangan holda xalqqa tegishli bo’lgan hikmatli so’zlar, maqol va matallarni yaratadi va ular umumxalq mulki hisoblanadi. Ushbu maqollarni oddiy kishilarkundalik so’zlashuvida, adabiyot vakillari esa yaratayotgan ijod namunalarida ularni sayqallash uchun qo’llaydi. Xalq maqollari shaxs nutqini bezashga, uni so’zamolqilib ko’rsatishga yordam bersa, yozma adabiyotda esa asarni yanada ta’sirchan, tushunarli bo’lishini ta’minlaydi. Hamda maqollar o’quvchini asarni yengil o’qa olishiga, maqol mazmuni va unda ishlatilayotgan so’zlariga, badiiy san’atiga qarab asar yaratilgan zamon haqida ham keng tushuna olishiga turtki bo’ladi”.[2]

Bunda, poraxo’rlik, sudxo’rlik kabi holatlar va ularda qiynalayotgan oddiy xalq vakilining butun bir tipik ravishda umumlashma obrazlar bilan birgalikda keng jamoatchilik, xalq irodasini ifodalangan. Bundan anglashiladiki, Abdulla Qahhor hikoyasiga “O’g’ri” deb nom berishi hamda sarlavha nomi ostida ma’lum bir ma’noni ask etilishi ham yozuvchining o’ziga xos mahoratidan darak beradi. Abdulla Qahhor ushbu hikoyasiga epigraf qilib “Otning o’limi itning bayrami” deb izoh berishning ham o’ziga xos ma’nolari bor. Shunday qilib, hikoyanavislik mahorati ham dastlab uning hikoyalarida muallif tili ijodiy qobiliyati bilan birgalikda hikoyalarning nomlanishi, ya’ni qanday tarzda mushtarak nomlanishini keltirib chiqaradi. Hikoyachilikda nomlar haqida so’z ketganda xalqona, xalqchil ekanligi bilan ham izohlanadi.

### References:

1. Eshkeldiyeva Feruza Xudoyor qizi. Hozirgi O’zbek adabiyotchiligidagi hikoyachilik va uning rivoji. Science and innovation international scientific journal 2022
2. Mirzayeva Dilshoda Ikromovna, Abdullayeva Nozima Anvarxonovna. “Abdulla Qahhor hikoyalarida maqol va matallarning qo’llanilishi” maqola. Oriental Renaissance: Innovative educational natural and social sciences - 20220